

## O`QUVCHILARNI KASB TANLASHDA USTUNLIK QILUVCHI MOTIVLAR

*Andijon viloyati Paxtaobod  
tumani 20-maktab psixologi*

*Turg'unova Shahnoza Shuhratjonovna.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o`quvchilarni kasb tanlash motivlari, kasbiy o`zlikni anglash, kasbiy ko`nikmalar va to`g`ri kasb tanlashning ahamiyati haqida ma`lumot berilgan.

**Kalit so`zlar:** kasb-hunar, faoliyat, ko`nikma, kasbiy moyillik, psixologik, fiziologik, kasbiy ko`nikma, malaka

Har qanday faoliyat asosida mehnat yotadi. Mehnat esa muayyan kasb - hunar bilan bog`liq bo`lib o`ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Shaxs o`z imkoniyatlariga mos mehnat jamoasini tanlashi, undagi vaziyatni to`g`ri baholay olishi, to`plangan amaliy tajriba va bilimlarni ish faoliyatiga joriy etish, mustaqil ko`nikma hosil qilishi kabi bir qancha shartlarni o`z ichiga olgan ushbu jarayonni umumiy mezon bilan baholashi mumkin. Bugungi kunda har bir o`smirlarning kasblar olamida o`z o`rnini topishi, kasbiy o`zligini anglashi, jamiyatda o`z o`rnini topishga intilishi va unga qiziqishlari kun sayin ortib bormoqda. O`smirlarga ko`plab kasblar ichida qaysi birini tanlash, unga o`zida moyillik, layoqat va qiziqishlarining mos kelishi yoki kelmasligini bilish kelajakda muhim ahamiyat kasb etishini tushuntirish muhim masala hisoblanadi. O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishning asosiy maqsadi birinchi navbatda yoshlarni o`zining hayot yo`lini to`g`ri belgilashlarida qobiliyat, qiziqish va moyilligini hamda sog`liklari holatini e`tiborga olgan holda kasb tanlashlariga ko`maklashishdan iborat. Buning uchun o`quvchilarni kasbiy ma`lumotlar, kasblarning insonlarga qo`yadigan talablari, kasblar bo`yicha mehnat jarayonlarining xususiyatlari, mazkur kasbni egallash manbalari, shuningdek, o`quvchilarni o`ziga yoqqan kasbga qat`iy qiziqish hosil qilishi uchun zarur ma`lumotlar bilan tanishtirishda maktab amaliyotchi psixologi, kasbga yo`naltiruvchi, fan o`qituvchilari va sinf rahbarining o`rni juda muhimdir. Bugungi kunda maktab o`quvchilarida kasb-hunar o`rganishlari, kasb tanlashlarida ikkilanishlar, noto`g`ri kasb tanlash kabi muammolarga duch kelamiz. O`quvchilar o`zlarining psixologik, jismoniy, fiziologik imkoniyatlarini hisobga olmasdan jamiyatga nufuzga ega bo`lgan, ko`proq daromad topish imkoni bo`lgan kasblarni egallashga harakat qilmoqdalar. Shu o`rinda maktab amaliyotchi psixologi o`quvchini qobiliyati, layoqati, jismoniy imkoniyati, psixologik jihatlarini hisobga olgan holda kasb tanlashga ko`maklashishi lozim. Bugungi kunda jamiyatda ehtiyoj sezilayotgan kasblar haqida o`quvchilar bilan

muntazam ravishda suhbatlar va tushuntirish ishlarini olib borishi lozim. O`quvchilar tanlagan sohalari yoki kasblarida kelajakda o`zlarini ko`rsatishi, ob`ro` topishi, katta yangiliklar, kashfiyotlar qilishlari kerak. Lekin asta - sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba yetishmayotganligini, buning uchun ko`proq o`qish va o`rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar. Shunga ko`ra, har kim qobiliyatiga yarasha kasb - hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muhim hissa qo`shgan bo`ladi. O`quvchilarni kasbga yo`naltirishda ularning his tuygu va irodalarini hisobga olishning ham muhim ahamiyati bor. Chunki, o`quvchilarning his - tuyrusi, kayfiyati, hayajonli holatlarda e`tiborga olinmasa, ko`zlangan maqsadga erishib bo`lmaydi. O`quvchilar u yoki bu kasbni o`z ixtiyorlari bilan ongli ravishda tanlashlari uchun ular mustaqillik, dadillik, qat`iylik, o`zini tuta bilish, chidamlilik, sabr - toqat kabi umuminsoniy va shaxsiy hislatlarga ega bo`lishlari kerak. Mehnat qilishda muqaddas burchni bajarish istagi, maqsadning aniqligi, hunar o`rganishga ishtiyoqmandlik mazkur fazilatlarining shakllanishiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Hayotda turli xil kasblar mavjud. Bir odam bir necha xil kasblarni egallashi mumkin, lekin shu bilan birga har bir kasb shu qadar murakkabki, inson o`z hayotini asosan, ana shu bir kasbga bag`ishlashi mumkin. Shu asosda kasb tanlash muammosi vujudga keladi. Aslida kasb tanlash barcha davrdan boshlab bolalarning rolli o`yinlarida ko`rinadi. Ma`lum bir kasbda faoliyat ko`rsatishni boshlayotgan inson unga intellektual, ijtimoiy - psixologik hamda axloqiy jihatdan tayyor bo`lishi kerak. Har qanday kasbiy ko`nikma va malakalarning o`sishi, avvalo o`quvchi intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog`liq. Shuning uchun ham bu davrdagi o`quvchilar intellektining rivojlanishiga alohida e`tibor berish lozim. Ushbu mavzuning nihoyatda dolzarbligini e`tiborga olib, uning qator jihatlarini o`rganish, dinamik kuzatish, diagnostik tomonlarini aniqlash lozim. Intelektni rivojlantiruvchi o`yinlar va mashqlar o`tkazish, individual maslahatlar berib borish lozim. Masalan, maktab amaliyotchi psixologi kasbga yo`naltirish o`yinlari va mashqlarini o`tkazishi mumkin. Masalan, "Mo`jizalar maydoni", "Ha-yo`q", "Piktogramma" (ramziy belgilar), "Kasbiy xarakter" , "Kasblar alifbosi", "Kasblar zanjiri" o`yinlarini o`tkazish mumkin. Kasb tanlashda o`quvchilar qobiliyatlaridan tashqari salomatlik holatini ham hisobga olishlari zarur, chunki kasb tanlovchilarning barchasi ham sog`liklarini e`tiborga olgan holda kasbni to`g`ri tanlaydi deb bo`lmaydi. Skelet mushak apparati anomaliyalari-skelet, bo`g`imlar, umurtqaning jarohatlanishi yoki kasalligi, muskullar kamchiligi bor bo`lgan o`quvchilar uchun ko`plab jismoniy energiyani, uzoq vaqt oyoqda turishni, tez-tez engashib turishni talab qiladigan kasblarni tanlash tavsiya qilinmaydi. Sezgi organlari (ko`rish, eshitish, hid bilish, ta`m bilish) da kamchiligi bor o`quvchilar uchun haydovchilik mutaxassisligining barcha turlari, mayda detallar bilan ishlash, oziq-ovqat, parfyumeriya sanoatining qator kasblari, oshpazlik kabi kasblarni tanlash tavsiya qilinmaydi. Asab tizimining buzilishi

– bosh aylanishi, qo`lning qaltirashi kabi kasalliklarga chalingan o`quvchilar uchun balandlikda transportda ishlash bilan bog`liq kasblar, soatsozlik, zargarlik kabi kasblar tavsiya etilmaydi. Ichki organlar-yurak-tomir va nafas tizimi kasalliklariga chalinganlar uchun changlangan, gazlangan muhitda, havoning siyrakligi muhitida yoki uning teskarisi bo`lgan yuqori atmosfera bosimi ostida, yoki yuqori harorat sharoitlari bilan bog`liq kasblar va boshqalar. Kasb tanlashda ikkilanayotgan o`quvchilar uchun maslahatlar Buning uchun avvalo psixolog va kasbga yo`naltiruvchi mehnat bozoridagi holatni tahlil qilishi, yildan-yil yangi kasblar paydo bo`layotganligiga e`tibor qaratishi lozim. O`quvchilarga maktabni tugatayotgan paytda kasb tanlashingiz, Sizning taqdiringizni butunlay hal qiladi deb qo`rqmasligini, keyinroq tanlovdagi o`zgarishlar, yangi mutaxassislikni o`zlashtirish mumkinligini tushuntirish lozim. Birinchi kasbdan keyinroq voz kechishi va o`zi uchun qiziqrog`ini topsa ham hayotning turli kutilmagan holatlarida u kasb o`quvchiga kerak bo`lishini tushuntirish lozim. Bundan tashqari, shuni unutmaslik kerakki har bir yigit uchun uyda sartarosh ham, elektrchi ham, haydovchi ham bo`lishga to`g`ri keladi. Ayollar uchun esa, tikuvchi, oshpaz, kir yuvish va boshqa maishiy mashinalar “operatori” bo`lishga to`g`ri keladi. Albatta, kasbning nufuzligi u yoki bu holda o`quvchi tomonidan inobatga olinadi, lekin buni o`quvchining qiziqishlari va qobiliyatlari, sog`lig`ining holatini hisobga olgandan so`ng amalga oshirish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod-“O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent-1997.
2. L.P.Uzoqova. “Kasb ta’limi metodikasi”. Toshkent 2029
3. D.M.Anvarova. “ Kasbga yo’naltirish va kasb tanlash asoslari”. Toshkent-

2020